

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI BO'LMAGAN AYRIM YURIDIK
SHAXSLARNI TASHKIL ETISH VA TUGATISHGA DOIR NORMATIV-
HUQUQIY HUJJATLARNI TASDIQLASH TO'G'RISIDA**

Yurtimizda yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bu sohada yagona huquqni qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish, barcha yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlarni yagona ma'lumot bazasiga birlashtirish orqali statistik ma'lumotlarning tizimlashtirilishiga erishish hamda tadbirkorlik subyekti bo'lmagan yuridik shaxslarning qonunchilikka muvofiq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Belgilab qo'yilsinki, davlat organlari, tashkilotlari va muassasalarini, shu jumladan boshqa davlat organlari huzurida tashkil etiladigan tashkilotlarni, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatadigan yuridik shaxslar birlashmalarini, advokatlik tuzilmalarini hamda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish davlat xizmatlari markazlari tomonidan Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali amalga oshiriladi.

2. Quyidagilar:

Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat organlarini tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti [1-ilovaga](#) muvofiq;

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti [2-ilovaga](#) muvofiq;

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti [3-ilovaga](#) muvofiq;

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamenti [4-ilovaga](#) muvofiq;

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestrini yuritish tartibi to'g'risidagi nizom [5-ilovaga](#) muvofiq;

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to'g'risidagi nizom [6-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

3. Adliya vazirligi:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda mazkur qarorning [2-bandida](#) nazarda tutilgan yuridik shaxslarni Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish imkoniyatini yaratsin;

uch oy muddatda davlat ro'yxatidan o'tgan barcha advokatlik tuzilmalarining davlat ro'yxatidan o'tkazishga doir hujjatlarining raqamlashtirilishini ta'minlasin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son [qaroriga](#) muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab advokatlik byurosini kompozit shaklda davlat ro'yxatidan o'tkazish yo'lga qo'yilsin.

2022-yil 1-noyabrga qadar advokatlik byurosini advokatlik faoliyatini boshlashda malaka imtihonini topshirish va advokatlik faoliyati uchun litsenziya olish jarayonida kompozit shaklda davlat ro'yxatidan o'tkazishni yo'lga qo'yish bo'yicha tashkiliy hamda texnik tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari, shu jumladan boshqa davlat organlari huzurida tashkil etiladigan tashkilotlar ikki oy muddatda mazkur qarorga [1-ilova](#) bilan belgilangan tartibda Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga kiritilishi uchun o'zlari haqidagi ma'lumotlarning (nomi, pochta manzili, tashkiliy-huquqiy shakli va ta'sis hujjatlari) tegishli tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlariga taqdim etilishini ta'minlasinlar.

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining [7-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Adliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi adliya vaziri R.Q. Davletov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 28-sentabr,
542-son

Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat organlarini tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning

MA'MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasining davlat organlari va muassasalarini (keyingi o'rinlarda — davlat tashkilotlari) yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazish (keyingi o'rinlarda — davlat ro'yxatidan o'tkazish) hamda davlat organini yuridik shaxs sifatida tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. Davlat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish Davlat xizmatlari markazlari (keyingi o'rinlarda — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ) tomonidan Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda — Tizim) orqali amalga oshiriladi.

3. Davlat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish ushbu Reglamentga [1-ilovadagi](#) sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Davlat tashkilotlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish

4. Davlat tashkiloti vakili (keyingi o'rinlarda — ariza beruvchi) Davlat tashkilotini tashkil etish haqidagi normativ-huquqiy hujjatda yoxud vakolatli davlat organlarining tegishli hujjatida (qaror, buyruq va b.) nazarda tutilgan muddatlarda, agar bunday muddat nazarda tutilmagan bo'lsa, qaror qabul qilingan kundan boshlab 10 kun ichida davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi kelib murojaat etadi va ushbu Reglamentga [2-ilovaga](#) muvofiq shakldagi so'rovnomanini elektron ravishda to'ldiradi.

Bunda, ariza beruvchi Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'zining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etadi.

5. So'rovnoma to'ldirilgandan so'ng, ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnomanini identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari bilan tasdiqlaydi.

6. Ariza beruvchi tomonidan so'rovnomaga quyidagi hujjatlar elektron shaklda (pdf formatda) ilova qilinadi:

Davlat tashkilotini tashkil etish haqidagi normativ-huquqiy hujjat yoki vakolatli davlat organlarining tegishli hujjati (qaror, buyruq va b.);

yuqori turuvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan Davlat tashkilotining ustavi.

Agar davlat tashkiloti to'g'risidagi nizom yoki ustav normativ-huquqiy hujjat bilan tasdiqlanishi belgilangan bo'lsa, nizom yoki ustavni ilova qilish talab etilmaydi.

7. Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

8. Ariza beruvchi mazkur Reglamentning **6-bandida** nazarda tutilgan hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga bevosita taqdim qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ hujjatlar taqdim etilgan vaqtdan boshlab 2 ish kuni davomida olingan hujjatlarni ko'rib chiqadi hamda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish haqida yoki mazkur Reglamentning **10-bandida** belgilangan holatlar mavjud bo'lganda davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad qilish haqida qaror qabul qiladi.

9. Agar taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lsa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi quyidagilarni amalga oshiradi:

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga avtomatik tarzda tegishli yozuvlar kiritish yo'li bilan davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni amalga oshiradi;

davlat ro'yxatidan o'tkazilgan davlat tashkilotini Tizim orqali avtomatik tarzda davlat soliq xizmati va statistika organlarida davlat hisobiga qo'yadi va bu haqida davlat aktivlarini boshqarish organlariga xabarnoma yuboradi;

mazkur Reglamentga **3-ilovaga** muvofiq QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi guvohnomani shakllantiradi;

Davlat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvohnoma hamda uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini ariza beruvchiga taqdim qiladi.

10. Mazkur Reglamentning **6-bandiga** muvofiq hujjatlarning taqdim etilmaganligi, davlat tashkilotining ustavi yoki nizomi yuqori turuvchi organ tomonidan tasdiqlanmasdan taqdim etilganligi davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish uchun asos bo'ladi.

Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazishni boshqa asoslarga, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi sabablariga ko'ra rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

11. Davlat ro'yxatidan o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi mazkur Reglamentga 4-ilovaga muvofiq Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish haqida qaror qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi hamda uni ariza beruvchiga taqdim qiladi.

12. Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish rad etilgan taqdirda ariza beruvchi xabarnomada ko'rsatilgan rad etish sabablarini bartaraf etgan holda umumiy asoslarda qayta murojaat qilish huquqiga ega.

13. Davlat tashkilotlari qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) ular o'n kunlik muddatda ro'yxatdan o'tkazuvchi organni bu haqida xabardor qilishlari shart.

Bunda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga faqat o'zgartirish uchun asos bo'lgan hujjat taqdim etilib, yangi tahrirdagi ustav yoki nizom talab etilmaydi.

14. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ariza beruvchidan xabarnoma va ilova qilingan hujjatlar qabul qilinganidan so'ng 2 ish kuni ichida Davlat tashkilotlarining yagona davlat reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi hamda Tizim orqali davlat soliq, statistika va davlat aktivlarini boshqarish organlarini xabardor qiladi.

3-bob. Davlat organlarini yuridik shaxs sifatida tugatish

15. Davlat organlarini yuridik shaxs sifatida tugatish bu haqidagi normativ-huquqiy hujjat yoki vakolatli davlat organlarining tegishli hujjatiga (qaror, buyruq va b.) asosan amalga oshiriladi.

16. Davlat organlarini yuridik shaxs sifatida tugatish uning vakili ro'yxatdan o'tkazuvchi organga ushbu reglamentning 15-bandida nazarda tutilgan hujjat bilan murojaat etadi.

17. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ hujjat qabul qilingan vaqtdan boshlab 1 ish soati mobaynida Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga davlat organini yuridik shaxs sifatida tugatish jarayonida ekanligi to'g'risida yozuv kiritadi, Tizim orqali davlat soliq, statistika, davlat aktivlarini boshqarish organlarini va tegishli bankni xabardor qiladi hamda bir ish kuni mobaynida ro'yxatdan o'tkazuvchi organning rasmiy veb-saytida ushbu yuridik shaxs tugatilayotganligi haqida e'lon joylashtiradi.

Tugatilayotgan davlat organini joylashgan joydagi davlat soliq xizmati organi ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan Tizim orqali xabardor qilingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida davlat

tashkilotining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga kirishadi, uning muddati o'n kalendar kundan oshmasligi kerak.

Tekshirishda davlat organining oxirgi tekshirish o'tkazilgan sanadan boshlab (davlat organining tekshirish davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab amalga oshirilmagan bo'lsa — davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab) davlat organini tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqida ro'yxatdan o'tkazgan organ xabardor qilingan sanagacha bo'lgan davr mobaynidagi moliya-xo'jalik faoliyati qamrab olinadi, biroq ushbu davr uch yildan oshmasligi zarur.

Tekshirish yakuniga ko'ra soliq to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda davlat soliq xizmati organi qonunchilik hujjatlariga muvofiq choralar ko'radi.

Soliqlar va yig'imlar, moliyaviy jarimalar summasi, shu jumladan, tekshirishlar yakunlari bo'yicha hisoblangan summalar to'langandan keyin, davlat soliq xizmati organi davlat organining soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi mavjud bo'lmagan taqdirda, bir ish kuni mobaynida soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risida xulosani Tizim orqali ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboradi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xulosani olgandan so'ng bir ish kuni mobaynida davlat organining vakiliga ushbu Reglamentga [5-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha davlat organini tugatilganligi to'g'risida xabarnoma taqdim etadi hamda Tizim orqali davlat soliq xizmati, bank va statistika organlarini xabardor qiladi.

18. Kreditorlar davlat organining tugatilishi haqida xabar ro'yxatdan o'tkazuvchi organning rasmiy veb-saytidan joylashtirilgan vaqtdan boshlab 2 oy muddatda davlat tashkilotining muassisi yoki vazifa va funksiyalarini qabul qilib olgan boshqa idoraga o'z talablarini taqdim etishlari mumkin.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

19. Davlat tashkiloti pochta manzili va rahbari o'zgargan taqdirda bu haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organni o'n kundan kechiktirmay o'zining Tizimdagi shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ davlat tashkilotining pochta manzili va rahbari o'zgarganligi haqida xabarnoma olgan vaqtdan boshlab bir ish kuni davomida Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritadi va bu to'g'risida davlat soliq xizmati va statistika organlarini xabardor qiladi.

20. Ariza beruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, aniqligi, buzib ko'rsatilganligi, shuningdek ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etilgan davlat tashkiloti ustavi yoki nizomining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi uchun javob beradi.

21. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat organlarini tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga

1-ILOVA

Davlat organlari va tashkilotlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Davlat organlari va tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qiladi.	10 kun ichida
2-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	<p>Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lganda Davlat organlari va tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirish.</p> <p>Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga nomuvofiq bo'lganda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad qilish va bu haqida ariza beruvchini xabardor qilish.</p>	2 ish kuni mobaynida
3-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	<p>Davlat organlari va tashkilotlari ta'sis hujjatlarini (nizom) QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'ygan holda tasdiqlash.</p> <p>Davlat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqidagi guvoohnoma hamda uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini ariza beruvchiga taqdim qilish.</p>	Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng real vaqt rejimida

Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat organlarini tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga

2-ILOVA

Davlat organlari va tashkilotlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish bo'yicha

SO'ROVNOMA

I. Ariza beruvchi jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:	
1. F.I.Sh.:	
2. JShShIR.:	
3. Ariza beruvchining davlat organlari va tashkilotlariga aloqadorligi:	
II. Davlat organlari va tashkilotlari to'g'risida ma'lumot:	
1. Davlat organlari va tashkilotlarining nomi (to'liq va qisqartirilgan (mavjud bo'lsa):	
2. Davlat organlari va tashkilotlarining pochta manzili:	
3. Aloqa bog'lanish uchun telefon raqami:	
4. Elektron pochta manzili, veb-sayti manzili (agar mavjud bo'lsa):	
III. Ilova qilinadigan hujjatlar:	
<p>1. Davlat tashkilotini tashkil etish haqidagi normativ-huquqiy hujjat yoki davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ularning hududiy bo'linmalari yoxud mahalliy davlat hokimiyati organlarining tegishli qarori;</p> <p>2. Yuqori turuvchi organ rahbari tomonidan tasdiqlangan Davlat tashkilotining nizomi;</p> <p>3. Ariza beruvchining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat.</p> <p>Izoh:</p> <p>1. Agar Davlat tashkilotining nizomi normativ-huquqiy hujjat bilan tasdiqlanishi lozim bo'lsa, nizomni ilova qilish talab etilmaydi.</p> <p>2. So'rovnoma taqdim etiladigan hujjatlar asliga muvofiq PDF formatda ilova qilinadi.</p>	
So'rovnoma to'ldirish sababi:	yangi ro'yxatdan o'tish
	qayta ro'yxatdan o'tish

Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat organlarini tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
3-ILOVA

Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi

GUVOHNOMA

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			
Davlat organlari va tashkilotlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida			
GUVOXNOMA			
Ro'yxatdan o'tkazilgan sana va raqam			
Davlat organlari va tashkilotlarining nomi			
Tashkiliy-huquqiy shakli			
STIR:			
QR- kod	Guvohnomani bergan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi: _____		

Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat organlarini tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
4-ILOVA

Davlat tashkilotini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish haqida

XABARNOMA

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami			
O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			

_____ qonunchilik			
hujjatlarida			
(ro'yxatdan o'tkazuvchi organing nomi)			
belgilangan tartibda va muddatlarda Sizning 20__ yil "___" _____ dagi			
		(yil, kun, oy)	
_____-son so'rovnomangizni ko'rib chiqib,			
_____ rad etilganligini			
ma'lum qiladi.			
(davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish)			
Rad etish asoslari:			
1.			
2.			
3.			
Axborot tariqasida ma'lum qilinadiki, Davlat organlari va tashkilotlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentining 14-bandiga asosan, davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish asoslari bartaraf etilgan taqdirda ariza beruvchi Davlat organlari va tashkilotlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun 5 ish kuni ichida qayta murojaat qilish huquqiga ega.			
_____			_____
(mas'ul shaxsning lavozimi)			(F.I.O)
<div style="border: 1px solid black; width: 100px; height: 100px; display: flex; align-items: center; justify-content: center; margin: 0 auto;">QR- kod</div>			

Davlat organlari va muassasalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va davlat organlarini tugatish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy

reglamentiga

5-ILOVA

Davlat organi tugatilganligi to'g'risida

XABARNOMA

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami			
O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			

_____ tomoni			
dan			
(ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nomi)			
belgilangan tartibda va muddatlarda Sizning 20__ yil "___" _____dagi			
		(yil, kun, oy)	
_____-son qarorga			
asosan,			
(tugatishga asos bo'lgan hujjat)			

(tugatilayotgan yuridik shaxs nomi)			
STIR _____;			
tugatilganligi haqidagi yozuv 20__ yil "___" _____dagi _____-son bilan Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestridan chiqarilganligini ma'lum qiladi.			
_____		_____	
(mas'ul shaxsning lavozimi)		(F.I.O)	
<div style="border: 1px solid black; width: 100px; height: 100px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;"> <div style="text-align: center;">QR- kod</div> </div>			

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 542-son qaroriga
2-ILOVA

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning

MA'MURIY REGLAMENT

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatadigan tarkibiga ikki va undan ortiq tijoratchi yuridik shaxslarni jamlagan notijorat tashkilotlar hisoblanuvchi uyushmalar (ittifoqlar) va o'zga birlashmalarni (keyingi o'rinlarda — yuridik shaxslar birlashmalari) davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish Davlat xizmatlari markazlari (keyingi o'rinlarda — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ) tomonidan Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda — Tizim) orqali amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar birlashmalari davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

3. Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish ushbu Reglamentga [1-ilovadagi](#) sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish

4. Yuridik shaxslar birlashmalari vakili (keyingi o'rinlarda — ariza beruvchi) yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi kelib murojaat etadi yoki Internet jahon axborot tarmog'i orqali Tizimda ro'yxatdan o'tadi.

Ariza beruvchi o'zi kelib murojaat etgan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi ariza beruvchi nomidan, Tizim orqali murojaat etgan taqdirda, esa ariza beruvchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga [2-ilovaga](#) muvofiq shakldagi so'rovnomanini elektron ravishda to'ldiradi.

Bunda, ariza beruvchi yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'zining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etadi.

5. Ariza beruvchi so'rovnomanini shakllantirishni istalgan bosqichda to'xtatish huquqiga ega.

6. Ariza beruvchi tomonidan yuridik shaxslar birlashmalarining nomi lotin alifbosida tanlanadi va uning boshqa yuridik shaxslarning nomlari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xshashligini tekshirish Tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

7. So'rovnoma to'ldirilgandan so'ng, ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnomanini identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari bilan tasdiqlaydi.

8. Ariza beruvchi tomonidan so'rovnomaga quyidagi hujjatlar elektron shaklda (pdf formatda) ilova qilinadi:

davlat tilidagi ta'sis shartnomasi va (yoki) ustav qabul qilinganligi to'g'risidagi ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) bayoni;

davlat tilidagi belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis shartnomasi va (yoki) ustav;

yuridik shaxslar birlashmalari qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) — qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxslar birlashmalarining barcha kreditorlar va qarzdorlar oldidagi barcha majburiyatlar bo'yicha, jumladan taraflar o'rtasidagi da'volashayotgan majburiyatlar yuzasidan huquqiy vorislikni o'z ichiga olgan taqsimlash balansi yoki topshirish dalolatnomasi.

Bunda ta'sis shartnomasi va ustav qabul qilinganligi to'g'risidagi ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) bayoni yuridik shaxslar birlashmalari a'zolari tomonidan Tizimda elektron ravishda ham tasdiqlanishi mumkin.

9. Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazganlik uchun "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonunida](#) belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Tizim orqali murojaat qilinganda davlat boji Davlat xizmatlari markazlari orqali to'lanadigan summaning 90 foizi miqdorida undiriladi.

Davlat boji to'langanligini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish rad etilgan taqdirda to'langan davlat boji qaytarilmaydi.

10. Davlat boji summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) Davlat xizmatlari markazi orqali bevosita o'zi murojaat qilganda:

20 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi;

0,5 foizi — to'lovlarni tasdiqlash Yagona billing tizimi orqali amalga oshirilganligi uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;

qolgan mablag'lar — Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga o'tkaziladi;

b) Tizim orqali murojaat etganda:

10 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi;

11,75 foizi — Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga (shu jumladan, 0,5 foizi yig'im to'langanligi Yagona billing tizimi orqali tasdiqlanganligi uchun);

qolgan mablag'lar — Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga o'tkaziladi.

11. Ariza beruvchi mazkur Reglamentning **8-bandida** nazarda tutilgan hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga bevosita taqdim qiladi (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki Tizim orqali elektron ravishda yuboradi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ taqdim etilgan hujjatlarni kelib tushgan sanadan boshlab 2 ish kuni davomida ko'rib chiqadi hamda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish haqida yoki mazkur Reglamentning **13-bandida** belgilangan holatlar mavjud bo'lganda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad qilish haqida qaror qabul qiladi.

12. Agar taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lsa ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi quyidagilarni amalga oshiradi:

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga avtomatik tarzda tegishli yozuvlar kiritish yo'li bilan davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni amalga oshiradi;

davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yuridik shaxslar birlashmalarini Tizim vositasida avtomatik tarzda davlat soliq xizmati va statistika organlarida davlat hisobiga qo'yadi;

mazkur Reglamentga **3-ilovaga** muvofiq QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi guvohnomani shakllantiradi;

yuridik shaxslar birlashmalari davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani, uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini ariza beruvchiga taqdim qiladi (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

13. Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

davlat boji to'lanmaganligi yoki uning to'liq bo'lmagan miqdorda to'langanligi;

mazkur Reglamentning **8-bandida** ko'rsatilgan hujjatlar to'liq taqdim etilmaganligi;

qonunchilik hujjatlari va ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilmagan organ tomonidan ta'sis hujjatlarini tasdiqlash (xulosaga kelish), ularga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinganligi;

yuridik shaxslar birlashmalari a'zolari tarkibiga tijoratchi bo'lmagan yuridik shaxslarning yoki yuridik shaxs bo'lmagan boshqa subyektlar qabul qilinganligi;

yuridik shaxslar birlashmalarini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining **77-moddasi** talablari rioya etilmagan bo'lsa;

yuridik shaxslar birlashmalarining a'zolari soniga qo'yilgan minimal talabning bajarilmaganligi.

Qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun murojaat etilganda a'zolar soniga qo'yilgan minimal talab buzilgan taqdirda yuridik shaxslar birlashmalari boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda qayta tashkil etilishi yoki ixtiyoriy tugatilishi kerak.

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni boshqa asoslarga, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi sabablariga ko'ra rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi mazkur Reglamentga **4-ilovaga** muvofiq yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) rad etish haqida qaror qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi hamda uni ariza beruvchiga taqdim qiladi (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

15. Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish rad etilgan taqdirda ariza beruvchi bu haqida xabarnomani olgan vaqtdan boshlab 5 ish kuni ichida tegishli kamchiliklarni bartaraf qilgan holda davlat boji to'lamasdan qayta murojaat qilish huquqiga ega.

Bunda, Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish mazkur bobda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi tomonidan ushbu bandning birinchi xatboshisida belgilangan muddatdan keyin berilgan so'rovnomalar yangidan berilgan hisoblanadi.

16. O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar birlashmalari qayta tashkil etilgan yoki asosiy faoliyat yo'nalishlarida o'zgarishlar yuz bergan taqdirda yoxud ta'sis hujjatlariga boshqacha tarzda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda, shuningdek a'zolari tarkibida o'zgarishlar yuz berganda ular o'ttiz kunlik muddatda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga qayta ro'yxatdan o'tish uchun murojaat qilishlari shart.

Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish ta'sis hujjatlarni yangi tahrirda qabul qilish yoki unga o'zgartirish kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

17. Yuridik shaxslar birlashmalarini qayta ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ularni qayta tashkil etish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

18. Yuridik shaxslar birlashmalari o'zining pochta manzili va rahbari o'zgargan taqdirda bu haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organni o'n kundan kechiktirmay o'zining Tizimdagi shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslar birlashmalarining pochta manzili va rahbari o'zgarganligi haqida xabarnoma olgan vaqtdan boshlab bir ish kuni davomida Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritadi va bu to'g'risida davlat soliq xizmati va statistika organlarini xabardor qiladi.

19. Ariza beruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, aniqligi, buzib ko'rsatilganligi, shuningdek ta'sis hujjatlarining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi uchun javob beradilar.

20. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga

1-ILOVA

**Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan)
o'tkazish**

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qiladi yoki Internet jahon axborot tarmog'i orqali Tizimda ro'yxatdan o'tadi.	Xohishiga ko'ra
2-bosqich	Ariza beruvchi	Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun Qonunda belgilangan miqdorda davlat bojini to'lash.	Murojaat qilingan vaqtda
3-bosqich	Davlat xizmatlari markazlari	Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lganda yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni amalga oshirish. Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga nomuvofiq bo'lganda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad qilish va bu haqida ariza beruvchini xabardor qilish.	2 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Ariza beruvchi	Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish rad etilgan taqdirda tegishli kamchiliklarni bartaraf qilgan holda qayta murojaat qilish	Xabarnoma olgan vaqtdan boshlab 5 ish kuni mobaynida
5-bosqich	Davlat xizmatlari markazlari	Yuridik shaxslar birlashmalari davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani, uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini ariza beruvchiga taqdim qilish (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuborish.	Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng real vaqt rejimida

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
2-ILOVA

**Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan)
o'tkazish bo'yicha**

SO'ROVNOMA

I. Ariza beruvchi jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:	
1. F.I.Sh.:	
2. JShShIR:	
3. Ariza beruvchining yuridik shaxslar birlashmalariga aloqadorligi:	
II. Yuridik shaxslar birlashmalari to'g'risida ma'lumot:	
1. Yuridik shaxslar birlashmalari nomi (to'liq va qisqartirilgan (mavjud bo'lsa)):	
2. Yuridik shaxslar birlashmalarining pochta manzili:	
3. Asosiy faoliyat turi:	
4. Aloqa bog'lanish uchun telefon raqami:	
5. Elektron pochta manzili, veb-sayti manzili (agar mavjud bo'lsa):	
III. Ilova qilinadigan hujjatlar:	
<p>1. Davlat tilidagi ta'sis shartnomasi va ustav qabul qilinganligi to'g'risidagi ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) bayoni;</p> <p>2. Davlat tilidagi belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis shartnomasi va ustav;</p> <p>3. Yuridik shaxslar birlashmalari ajratib chiqarish yoki qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil qilinganda — qayta tashkil qilinayotgan yuridik shaxslar birlashmalarining barcha kreditorlar va qarzdorlar oldidagi barcha majburiyatlar bo'yicha, jumladan taraflar o'rtasidagi da'volashayotgan majburiyatlar yuzasidan huquqiy vorislikni o'z ichiga olgan taqsimlash balansi yoki topshirish dalolatnomasi.</p> <p>4. Ariza beruvchining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat.</p> <p>Izoh: so'rovnomaga taqdim etiladigan hujjatlar asliga muvofiq PDF formatda ilova qilinadi.</p>	

So'rovnoma to'ldirish sababi:	yangi ro'yxatdan o'tish
	qayta ro'yxatdan o'tish

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
3-ILOVA

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi

GUVOHNOMA

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			
Yuridik shaxslar birlashmasining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida			
GUVOXNOMA			
Ro'yxatdan o'tkazilgan sana va raqam			
Yuridik shaxslar birlashmasining nomi			
Tashkiliy-huquqiy shakli			
STIR:			
	Guvohnomani bergan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi:		
QR-kod			

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
4-ILOVA

Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) rad etish haqida

XABARNOMA

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami
--

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			
_____ qonunchilik			
hujjatlarida			
(ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organning nomi)			
belgilangan tartibda va muddatlarda Sizing 20__ yil “__” _____dagi			
		(yil, kun, oy)	
_____-son so‘rovnomangizni ko‘rib chiqib,			
_____ rad etilganligini			
ma’lum qiladi.			
(davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish)			
Rad etish asoslari:			
1.			
2.			
3...			
<p>Axborot tariqasida ma’lum qilinadiki, Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning ma’muriy reglamentining 14-bandiga asosan, ariza beruvchi davlat ro‘yxatidan (qayta ro‘yxatdan) o‘tkazishni rad etish asoslari bartaraf etgan holda 5 ish kuni mobaynida davlat boji to‘lamasdan yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro‘yxatidan (qayta ro‘yxatdan) o‘tkazish uchun qayta murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur muddatdan keyin berilgan murojaatlar umumiy tartibda berilgan hisoblanadi.</p>			
_____		_____	
(mas’ul shaxsning lavozimi)		(F.I.O)	
<div style="border: 1px solid black; width: 100px; height: 100px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;"> QR-kod </div>			

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 542-son qaroriga
3-ILOVA

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatini ko‘rsatishning

MA’MURIY REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatadigan advokatlik byurolari, advokatlik firmalari va advokatlar hay'atlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish hamda yuridik maslahatxonalarni hisobga olish (keyingi o'rinlarda — advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) Davlat xizmatlari markazlari (keyingi o'rinlarda — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ) tomonidan Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda — Tizim) orqali amalga oshiriladi.

3. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) ushbu Reglamentga [1-ilovadagi](#) sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)

4. Advokatlik tuzilmasi muassisi yoki uning vakili (keyingi o'rinlarda — ariza beruvchi) advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) uchun O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qiladi hamda ushbu Reglamentga [2-ilovaga](#) muvofiq shakldagi so'rovnomani elektron ravishda to'ldiradi.

Bunda, ariza beruvchi advokatlik tuzilmasini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'zining vakolatligini tasdiqlovchi hujjatni ilova qiladi.

5. Ariza beruvchi so'rovnomani shakllantirishni istalgan bosqichda to'xtatish huquqiga ega.

6. Ariza beruvchi tomonidan advokatlik tuzilmasining nomi lotin alifbosida tanlanadi va uning boshqa yuridik shaxslarning nomlari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xshashligini tekshirish Tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

7. So'rovnoma to'ldirilgandan so'ng, ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnomani identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari bilan tasdiqlaydi.

8. Ariza beruvchi tomonidan so'rovnomaga quyidagi hujjatlar elektron shaklda (pdf formatda) ilova qilinadi:

advokatlik firmasi yoki advokatlar hay'atini tashkil etish to'g'risidagi, ularning muassislari to'g'risidagi, ularning ustavlarini

tasdiqlash to'g'risidagi, rahbarlik organlarini shakllantirish to'g'risidagi (advokatlik firmalari yoki advokatlar hay'atlari uchun) ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ta'sis yig'ilishining davlat tilidagi bayoni;

yuridik maslahatxona uchun — O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari rahbarining yuridik maslahatxona tashkil etish to'g'risidagi davlat tilidagi buyrug'i;

davlat tilidagi belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis shartnomasi va ustav, advokatlik byurosi uchun faqat ustav, yuridik maslahatxona uchun davlat tilidagi nizom;

advokatlik tuzilmasi qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) — qayta tashkil qilinayotgan advokatlik tuzilmasining barcha kreditorlar va qarzdorlar oldidagi barcha majburiyatlar bo'yicha, jumladan taraflar o'rtasidagi da'volashayotgan majburiyatlar yuzasidan huquqiy vorislikni o'z ichiga olgan taqsimlash balansi yoki topshirish dalolatnomasi.

Bunda ta'sis shartnomasi va (yoki) ustav qabul qilinganligi to'g'risidagi ta'sis yig'ilishi (konferensiyasi) bayoni Advokatlik tuzilmasi muassislari tomonidan Tizimda elektron ravishda ham tasdiqlanishi mumkin.

9. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) uchun "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonunida](#) belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Tizim orqali murojaat qilinganda davlat boji Davlat xizmatlari markazlari orqali to'lanadigan summaning 90 foizi miqdorida undiriladi.

Davlat boji to'langanligini tasdiqlash axborot-kommunikatsiya tizimlari orqali amalga oshiriladi.

Davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) rad etilgan taqdirda to'langan davlat boji qaytarilmaydi.

10. Davlat boji summasi quyidagi tartibda taqsimlanadi:

0,5 foizi — to'lovlarni tasdiqlash Yagona billing tizimi orqali amalga oshirilganligi uchun Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga;

qolgan mablag'lar — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga;

b) 11,75 foizi — Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasining Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha maxsus hisobvarag'iga (shu jumladan, 0,5 foizi yig'im to'langanligi Yagona billing tizimi orqali tasdiqlanganligi uchun);

qolgan mablag'lar — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi.

11. Ariza beruvchi mazkur Reglamentning 8-bandida nazarda tutilgan hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga Tizim orqali elektron ravishda yuboradi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ hujjatlar kelib tushgan sanadan boshlab:

1 ish kuni mobaynida muassislarning litsenziyalari va advokat maqomiga ega bo'lmagan muassislarning malaka komissiyalarining advokatning qasamyodini muassislar qabul qilganligini tasdiqlash to'g'risidagi qarorini adliya organlari va O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalaridan o'zaro elektron axborot almashinuvi orqali so'rab oladi. Bunda, ushbu tashkilotlar ma'lumotning 1 ish kuni ichida taqdim etilishi uchun mas'ul bo'ladi;

4 ish kuni davomida hujjatlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi jihatidan ko'rib chiqadi hamda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) haqida yoki mazkur Reglamentning 13-bandida belgilangan holatlar mavjud bo'lganda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad qilish haqida qaror qabul qiladi.

12. Agar taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lsa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi quyidagilarni amalga oshiradi:

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga avtomatik tarzda tegishli yozuvlar kiritish yo'li bilan davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)ni amalga oshiradi;

davlat ro'yxatidan o'tkazilgan (hisobga qo'yilgan) Advokatlik tuzilmalarini Tizim vositasida avtomatik tarzda davlat soliq xizmati va statistika organlarida davlat hisobiga qo'yadi;

mazkur Reglamentga 3-ilovaga muvofiq QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) haqidagi guvohnomani shakllantiradi;

Advokatlik tuzilmalari davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani, uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

13. Ariza beruvchining xohishiga ko'ra, advokatlik faoliyati uchun litsenziya olish bo'yicha malaka imtihonini topshirish jarayonida advokatlik byurosi ham kompozit shaklda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi mumkin.

Bunda, ariza beruvchi advokatlik faoliyati uchun litsenziya olish bo'yicha malaka imtihonini topshirish uchun to'ldiriladigan arizaga qo'shimcha ravishda advokatlik byurosini tashkil etish haqidagi so'rovnomani mazkur reglamentning **8-bandida** advokatlik byurosi uchun talab qilingan hujjatlarni ilova qilgan holda ixtiyoriy ravishda to'ldiradi.

Malaka imtihonini qabul qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi ariza beruvchi tomonidan malaka imtihoni muvaffaqiyatli topshirilganda litsenziya berish hamda advokatlik byurosini ro'yxatdan o'tkazishga doir hujjatlarni advokatlik faoliyatini litsenziyalovchi vakolatli adliya organiga yuboradi hamda shu vaqtning o'zida ariza beruvchining telefon raqamiga tegishli litsenziya va advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun "Davlat boji to'g'risida"gi **Qonunda** belgilangan to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha elektron invoys yuboriladi.

Advokatlik faoliyatini litsenziyalovchi vakolatli adliya organi so'rovnomaga ilova qilingan hujjatlarni mazkur reglament talablari asosida ko'rib chiqib, ular qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lganda, ariza beruvchi tomonidan tegishli to'lovlar amalga oshirilganda, shuningdek litsenziya berish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilinganda advokatlik byurosini o'z axborot tizimida ro'yxatdan o'tkazuvchi organning axborot tizimi orqali davlat ro'yxatidan o'tkazadi.

Adliya organi tomonidan litsenziya berish rad etilgan taqdirda advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish ham rad etiladi.

Bunda, ariza beruvchi litsenziya berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni belgilangan muddatda bartaraf etgan holda advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha to'lov to'lamasdan qayta murojaat qilishi yoki amalga oshirilgan to'lov asosida kelgusida Davlat xizmatlari markazida advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazishi mumkin.

Ariza beruvchi tomonidan litsenziya berish rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan

hollarda advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha amalga oshirilgan to'lov uning murojaatiga asosan to'lov taqsimlangan manbalar hisobidan qaytariladi.

14. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)ni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

davlat boji to'lanmaganligi yoki uning to'liq bo'lmagan miqdorda to'langanligi;

ushbu Reglamentning 8-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni to'liq taqdim etilmaganligi;

qonun va ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilmagan organ tomonidan ta'sis hujjatlarini tasdiqlash (xulosaga kelish), ularga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinganligi;

ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza muassislar litsenziya olgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgandan keyin topshirilsa, agar ular advokat maqomiga ega bo'lmasalar;

Advokatlik tuzilmalaridagi advokatlar soni "Advokatura to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan miqdorlarga mos kelmasligi;

agar ro'yxatdan o'tkazish (hisobga olish) uchun taqdim etilgan ta'sis hujjatlarida (nizomlarda) haqiqiy bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan bo'lsa.

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni boshqa asoslarga, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi sabablariga ko'ra rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

15. Davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)ga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi mazkur Reglamentga 4-ilovaga muvofiq Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)ni rad etish haqida qaror qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi hamda uni ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

16. Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) rad etilgan taqdirda ariza beruvchi bu haqida xabarnomani olgan vaqtdan boshlab 5 ish kuni ichida tegishli kamchiliklarni bartaraf qilgan holda davlat boji to'lamasdan qayta murojaat qilish huquqiga ega.

Bunda, Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) mazkur bobda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi tomonidan ushbu bandning birinchi xatboshisida belgilangan muddatdan keyin berilgan so'rovnomalar yangidan berilgan hisoblanadi.

17. O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan Advokatlik tuzilmalari qayta tashkil etilgan yoxud ta'sis hujjatlariga boshqacha tarzda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda, shuningdek advokatlik firmalarining a'zolari tarkibida o'zgarishlar yuz berganda ular o'n kunlik muddatda ro'yxatdan o'tkazuvchi organga qayta ro'yxatdan o'tish uchun murojaat qilishlari shart.

Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish ta'sis hujjatlarni yangi tahrirda qabul qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

18. Advokatlik tuzilmalarini qayta ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek ularni qayta tashkil etish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

19. Advokatlik tuzilmalari pochta manzili va rahbari o'zgargan taqdirda bu haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organni o'n kundan kechiktirmay o'zining Tizimdagi shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ advokatlik tuzilmalarining pochta manzili va rahbari o'zgarganligi haqida xabarnoma olgan vaqtdan boshlab bir ish soati davomida Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritadi va bu to'g'risida davlat soliq xizmati va statistika organlarini xabardor qiladi.

20. Ariza beruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, aniqligi, buzib ko'rsatilganligi, shuningdek ta'sis hujjatlarining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi uchun javob beradilar.

21. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
1-ILOVA

**Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish
(hisobga olish)**

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilish.	Xohishiga ko'ra
2-bosqich	Ariza beruvchi	Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) uchun Qonunda belgilangan miqdorda davlat bojini to'lash.	Murojaat qilingan vaqtda
3-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	Muassislarning litsenziyalari va advokat maqomiga ega bo'lmagan muassislarning malaka komissiyalarining advokatning qasamyodini muassislar qabul qilganligini tasdiqlash to'g'risidagi qarorini adliya organlari va O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalaridan o'zaro elektron axborot almashinuvi orqali so'rab oladi. Bunda, ushbu tashkilotlar ma'lumotning 1 ish kuni ichida taqdim etilishi uchun mas'ul bo'ladi.	So'rovnoma kelib tushgach 1 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	<p>Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lganda Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)ni amalga oshirish.</p> <p>Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga nomuvofiq bo'lganda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)ni rad qilish va bu haqida ariza beruvchini xabardor qilish.</p>	So'rovnoma kelib tushgach 4 ish kuni mobaynida
5-bosqich	Ariza beruvchi	Advokatlik tuzilmasini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) rad etilgan taqdirda tegishli kamchiliklarni bartaraf qilgan holda qayta murojaat qilish.	Xabarnoma olgan vaqtdan boshlab 5 ish kuni mobaynida
6-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	Advokatlik tuzilmalari davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani, uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuborish.	Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng real vaqt rejimida

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
2-ILOVA

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish) bo'yicha

SO'ROVNOMA

I. Ariza beruvchi jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:	
1. F.I.Sh.:	
2. JShShIR.:	
3. Ariza beruvchining Advokatlik tuzilmalariga aloqadorligi:	
II. Advokatlik tuzilmalari to'g'risida ma'lumot:	
1. Advokatlik tuzilmasining nomi (to'liq va qisqartirilgan (mavjud bo'lsa)):	
2. Muassislar litsenziyalarining rekviztlari (raqami va sanasi), advokatlik byurosi kompozit shaklda ro'yxatdan o'tkazilgan holatlar bundan mustasno:	
3. Malaka komissiyalarining advokatning qasamyodini muassislar qabul qilganligini tasdiqlash to'g'risidagi qarori rekviztlari (raqami va sanasi), advokatlik byurosi kompozit shaklda ro'yxatdan o'tkazilgan holatlar bundan mustasno:	
4. Advokatlik tuzilmalarining tashkiliy shakli:	Advokatlik byurosi Advokatlik firmasi Advokatlik hay'ati Yuridik maslahatxona
5. Advokatlik tuzilmalarining pochta manzili:	

6. Aloqa bog'lanish uchun telefon raqami:	
7. Elektron pochta manzili, veb-sayti manzili (agar mavjud bo'lsa):	
III. Ilova qilinadigan hujjatlar:	
<p>1. Davlat tilidagi ta'sis yig'ilishining bayoni, yuridik maslahatxona uchun O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalari rahbarining yuridik maslahatxona tashkil etish to'g'risidagi buyrug'i.</p> <p>2. Davlat tilidagi ta'sis shartnomasi va ustav, advokatlik byurosi uchun faqat ustav, yuridik maslahatxona uchun nizom.</p> <p>3. Advokatlik tuzilmasini ajratib chiqarish yoki qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil qilinganda — qayta tashkil qilinayotgan advokatlik tuzilmasining barcha kreditorlar va qarzdorlar oldidagi barcha majburiyatlar bo'yicha, jumladan taraflar o'rtasidagi da'volashayotgan majburiyatlar yuzasidan huquqiy vorislikni o'z ichiga olgan taqsimlash balansi yoki topshirish dalolatnomasi.</p> <p>4. Ariza beruvchining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat.</p> <p>Izoh: so'rovnoma taqdim etiladigan hujjatlar asliga muvofiq PDF formatda ilova qilinadi.</p>	
So'rovnoma to'ldirish sababi:	yangi ro'yxatdan o'tish (hisobga olish)
	qayta ro'yxatdan o'tish (hisobga olish)

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
3-ILOVA

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish (hisobga olish) haqida

GUVOHNOMA

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			

Advokatlik tuzilmalarining davlat ro'yxatidan (hisobga qo'yilganligi) o'tkazilganligi to'g'risida			
GUVOXNOMA			
Ro'yxatdan o'tkazilgan sana va raqam			
Advokatlik tuzilmasining nomi:			
Tashkiliy shakli:			
STIR:			
QR- kod	Guvohnomani bergan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi:		

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
4-ILOVA

Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish (hisobga olish)ni rad etish haqida

XABARNOMA

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami			
O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			
_____ qonunchilik hujjatlarida			
(ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nomi)			
belgilangan tartibda va muddatlarda Sizing 20__ yil "___" _____ dagi			
		(yil, kun, oy)	
_____-son so'rovnomangizni ko'rib chiqib,			
_____ rad etilganligini ma'lum qiladi.			
(davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish)			
Rad etish asoslari:			

1.			
2.			
3.			
<p>Axborot tariqasida ma'lum qilinadiki, Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentining 14-bandiga asosan, ariza beruvchi davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish asoslari bartaraf etgan holda 5 ish kuni mobaynida davlat boji to'lamasdan Advokatlik tuzilmalarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun qayta murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur muddatdan keyin berilgan murojaatlar umumiy tartibda berilgan hisoblanadi.</p>			
_____		_____	
(mas'ul shaxsning lavozimi)		(F.I.O)	
<div style="border: 1px solid black; width: 150px; height: 100px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;"> <p>QR-kod</p> </div>			

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 542-son [qaroriga](#)
4-ILOVA

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning

MA'MURIY REGLAMENT

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Reglament O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatadigan uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish tartibini belgilaydi.

Uy-joy mulkdorlari shirkati (keyingi o'rinlarda — shirkat) shirkatdagi uy-joylar mulkdorlarining tashabbusiga ko'ra tashkil etiladi va o'z ustaviga muvofiq o'zini o'zi boshqarish asosida faoliyat ko'rsatadi.

Shirkatni tashkil etish to'g'risidagi qaror har bir ko'p kvartirali uydagi barcha joylar mulkdorlarining yoki ular vakillarining ellik foizidan ko'pi hozir bo'lgan joylar mulkdorlarining ta'sis yig'ilishida qabul qilinadi.

Shirkatning a'zolari ko'p kvartirali uydagi joylarning mulkdorlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardan iboratdir.

2. Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish Davlat xizmatlari markazlari (keyingi o'rinlarda — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ) tomonidan Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda — Tizim) orqali amalga oshiriladi.

Belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tmagan Shirkatlarning faoliyati noqonuniy hisoblanadi.

3. Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish ushbu Reglamentga [1-ilovadagi](#) sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

2-bob. Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish

4. Shirkat vakili (keyingi o'rinlarda — ariza beruvchi) Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi kelib murojaat etadi yoki Internet jahon axborot tarmog'i orqali Tizimda ro'yxatdan o'tadi.

Ariza beruvchi o'zi kelib murojaat etgan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi ariza beruvchi nomidan, Tizim orqali murojaat etgan taqdirda, esa ariza beruvchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga [2-ilovaga](#) muvofiq shakldagi so'rovnomani elektron ravishda to'ldiradi.

Bunda, ariza beruvchi shirkatni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'zining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etadi.

5. Ariza beruvchi so'rovnomani shakllantirishni istalgan bosqichda to'xtatish huquqiga ega.

6. Ariza beruvchi tomonidan shirkatning nomi lotin alifbosida tanlanadi va uning boshqa yuridik shaxslarning nomlari bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga o'xshashligini tekshirish Tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

7. So'rovnoma to'ldirilgandan so'ng, ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnomani identifikatsiya qilishning zamonaviy vositalari bilan tasdiqlaydi.

8. Ariza beruvchi tomonidan so'rovnomaga quyidagi hujjatlar elektron shaklda (pdf formatda) ilova qilinadi:

shirkat tashkil etish (har bir uy uchun ovoz berish natijalari bilan), ustavni tasdiqlash va boshqaruv organlarini tanlash to'g'risidagi qarorni o'z ichiga olgan umumiy yig'ilish raisi va kotibi tomonidan imzolangan uy (uylar)dagi xonadonlar mulkdorlari umumiy yig'ilishi bayonidan ko'chirma;

shirkat ustavi;

uydagi xonadonlarning (har bir uy uchun) shirkat tashkil etilishi uchun ijobiy ovoz bergan mulkdorlarining pasport ma'lumotlari, manzillari, xonadonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarining nomi va rekvizitlari hamda ularning imzolari ko'rsatilgan ushbu Reglamentga [3-ilovaga](#) muvofiq ro'yxati;

uylarning xonadonlar va noturar joylar soni ko'rsatilgan manzilli ro'yxati;

shirkat qayta tashkil etilganda (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) — qayta tashkil qilinayotgan shirkatning barcha kreditorlar va qarzdorlar oldidagi barcha majburiyatlar bo'yicha, jumladan taraflar o'rtasidagi da'volashayotgan majburiyatlar yuzasidan huquqiy vorislikni o'z ichiga olgan taqsimlash balansi yoki topshirish dalolatnomasi.

9. Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazganlik uchun davlat boji undirilmaydi.

10. Ariza beruvchi mazkur Reglamentning [8-bandida](#) nazarda tutilgan hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga bevosita taqdim qiladi (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki Tizim orqali elektron ravishda yuboradi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ taqdim etilgan hujjatlarni kelib tushgan sanadan boshlab 2 ish kuni davomida ko'rib chiqadi hamda ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish haqida yoki mazkur Reglamentning [12-bandida](#) belgilangan holatlar mavjud bo'lganda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad qilish haqida qaror qabul qiladi.

11. Agar taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lsa, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi quyidagilarni amalga oshiradi:

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga avtomatik tarzda tegishli yozuvlar kiritish yo'li bilan davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni amalga oshiradi;

davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Shirkatni Tizim vositasida avtomatik tarzda davlat soliq xizmati va statistika organlarida davlat hisobiga qo'yadi;

mazkur Reglamentga [4-ilovaga](#) muvofiq QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan Shirkatni davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi guvohnomani shakllantiradi;

Shirkat davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani, uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavini ariza beruvchiga taqdim qiladi (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

12. Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

ushbu Reglamentning **8-bandida** ko'rsatilgan hujjatlarni to'liq taqdim etilmaganligi;

qonunchilik va ta'sis hujjatlari bilan vakolat berilmagan organ tomonidan ta'sis hujjatlarini tasdiqlash (xulosaga kelish), ularga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilinganligi;

agar ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan hujjatlarda haqiqiy bo'lmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan bo'lsa.

Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni boshqa asoslarga, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi sabablariga ko'ra rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

13. Davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishga to'sqinlik qiluvchi holatlar mavjud bo'lganda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi mazkur Reglamentga **5-ilovaga** muvofiq Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish haqida qaror qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnomani rasmiylashtiradi hamda uni ariza beruvchiga taqdim qiladi yoki ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

14. Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish rad etilgan taqdirda ariza beruvchi bu haqida xabarnomani olgan vaqtdan boshlab 5 ish kuni ichida tegishli kamchiliklarni bartaraf qilgan holda faqat kamchiliklar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan qayta murojaat qilish huquqiga ega.

Bunda, shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish mazkur bobda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ariza beruvchi tomonidan ushbu bandning birinchi xatboshisida belgilangan muddatdan keyin berilgan so'rovnomalar yangidan berilgan hisoblanadi.

15. O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan shirkatlar qayta tashkil etilgan yoki ta'sis hujjatiga boshqacha tarzda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda ular o'ttiz kunlik muddatda

ro'yxatdan o'tkazuvchi organga qayta ro'yxatdan o'tish uchun murojaat qilishlari shart.

Ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish ta'sis hujjatlarni yangi tahrirda qabul qilish yoki unga o'zgartirish kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

16. Shirkatni qayta ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek uni qayta tashkil etish bo'yicha murojaatlarni ko'rib chiqish ushbu bobda nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

17. Shirkatlar pochta manzili va rahbari o'zgargan taqdirda bu haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organi o'n kundan kechiktirmay o'zining Tizimdagi shaxsiy kabineti orqali xabardor qiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ Shirkatning pochta manzili va rahbari o'zgarganligi haqida xabarnoma olgan vaqtdan boshlab bir ish soati davomida Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga tegishli yozuvni kiritadi va bu to'g'risida davlat soliq xizmati va statistika organlarini xabardor qiladi.

18. Ariza beruvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, aniqligi, buzib ko'rsatilganligi, shuningdek ta'sis hujjatlarining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi uchun javob beradilar.

19. Ushbu Reglament talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning [ma'muriy reglamentiga](#)
1-ILOVA

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Ariza beruvchi	Uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun Davlat xizmatlari markaziga murojaat qilish yoki Internet jahon axborot tarmog'i orqali Tizimda ro'yxatdan o'tish.	Xohishiga ko'ra
2-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga muvofiq bo'lganda uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni amalga oshirish.	2 ish kuni mobaynida

		Taqdim qilingan hujjatlar mazkur Reglament talablariga nomuvofiq bo'lganda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad qilish va bu haqida ariza beruvchini xabardor qilish.	
3-bosqich	Ariza beruvchi	Uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish rad etilgan taqdirda tegishli kamchiliklarni bartaraf qilgan holda qayta murojaat qilish	Xabarnoma olgan vaqtdan boshlab 5 ish kuni mobaynida
4-bosqich	Davlat xizmatlari markazi	Uy-joy mulkdorlari shirkat davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazilganligi haqidagi guvohnomani, uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavini ariza beruvchiga taqdim qiladi (o'zi kelib murojaat etgan taqdirda) yoki ariza beruvchining Tizimdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.	Davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng real vaqt rejimida

Uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
2-ILOVA

Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish bo'yicha

SO'ROVNOMA

I. Ariza beruvchi jismoniy shaxs to'g'risida ma'lumot:	
1. F.I.Sh.:	
2. JShShIR.:	
3. Ariza beruvchining uy-joy mulkdorlari shirkatiga aloqadorligi:	
II. Uy-joy mulkdorlari shirkatlari to'g'risida ma'lumot:	
1. Uy-joy mulkdorlari shirkati nomi (to'liq va qisqartirilgan (mavjud bo'lsa)):	
2. Uy-joy mulkdorlari shirkatining pochta manzili:	
4. Aloqa bog'lanish uchun telefon raqami:	
5. Elektron pochta manzili, veb-sayti manzili (agar mavjud bo'lsa):	
III. Ilova qilinadigan hujjatlar:	

1. Davlat tilidagi uy (uylar)dagi xonadonlar mulkdorlari umumiy yig'ilishi bayonidan ko'chirma.

2. Davlat tilidagi ustav.

3. Uydagi xonadonlarning (har bir uy uchun) shirkat tashkil etilishi uchun ijobiy ovoz bergan mulkdorlarining ro'yxati.

4. Uylarning xonadonlar va noturar joylar soni ko'rsatilgan manzilli ro'yxati.

5. Shirkat ajratib chiqarish yoki qo'shib yuborish shaklida qayta tashkil qilinganda — qayta tashkil qilinayotgan shirkatning barcha kreditorlar va qarzdorlar oldidagi barcha majburiyatlar bo'yicha, jumladan taraflar o'rtasidagi da'volashayotgan majburiyatlar yuzasidan huquqiy vorislikni o'z ichiga olgan taqsimlash balansi yoki topshirish dalolatnomasi.

6. Ariza beruvchining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat.

Izoh: so'rovnoma taqdim etiladigan hujjatlar asliga muvofiq PDF formatda ilova qilinadi.

So'rovnoma to'ldirish sababi:	yangi ro'yxatdan o'tish
	qayta ro'yxatdan o'tish

Uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga

3-ILOVA

_____ manzilda joylashgan uydagi xonadonlarning
“_____” uy-joy mulkdorlari shirkati tashkil etilishi uchun
“ijobiy” ovoz bergan mulkdorlarining ro'yxati Uydagi xonadonlarning umumiy
soni — _____, noturar joylar soni — _____

T/r	Xonadon mulkdorining F.I.O. (yoki yuridik shaxsning nomi)	Pasport ma'lumotlari (yuridik shaxsning ro'yxatdan o'tganligi to'g'risidagi ma'lumotlar)	Xonadon manzili	Xonadonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari	Imzo	Sana	Xonadon mulkdorining ishonchnomasi to'g'risida ma'lumot
-----	---	--	-----------------	--	------	------	---

1.							
2.							
3.							

Uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
4-ILOVA

Shirkatni davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi

GUVOHNOMA

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			
Uy-joy mulkdorlari shirkatining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida			
GUVOXNOMA			
Ro'yxatdan o'tkazilgan sana va raqam			
Uy-joy mulkdorlari shirkatining nomi:			
Tashkiliy-huquqiy shakli:			
STIR:			
QR- kod	Guvohnomani bergan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi:		

Uy-joy mulkdorlari shirkatini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentiga
5-ILOVA

Shirkatni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish haqida

XABARNOMA

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami			
O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			

_____ qonunchilik			
hujjatlarida			
(ro'yxatdan o'tkazuvchi organning nomi)			
belgilangan tartibda va muddatlarda Sizning 20__ yil "___" _____dagi			
		(yil, kun, oy)	
_____-son so'rovnomangizni ko'rib chiqib,			
_____ rad etilganligini ma'lum			
qiladi.			
(davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish)			
Rad etish asoslari:			
1.			
2.			
3.			
<p>Axborot tariqasida ma'lum qilinadiki, Uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatishning ma'muriy reglamentining 14-bandiga asosan, ariza beruvchi davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni rad etish asoslari bartaraf etgan holda 5 ish kuni mobaynida faqat kamchiliklar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan uy-joy mulkdorlari shirkatlarini davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish uchun qayta murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur muddatdan keyin berilgan murojaatlar umumiy tartibda berilgan hisoblanadi.</p>			
_____		_____	
(mas'ul shaxsning lavozimi)		(F.I.O)	
<div style="border: 1px solid black; width: 150px; height: 100px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;"> <p>QR-kod</p> </div>			

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28 sentyabdagi 542-son qaroriga
5-ILOVA

**Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat
reystrini yuritish tartibi to'g'risidagi**

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Davlat xizmatlari markazlari (keyingi o'rinlarda — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ) tomonidan davlat organlari va

muassasalari, tarkibiga tijoratchi yuridik shaxslarni jamlagan birlashmalar, uy-joy mulkdorlari shirkatlari hamda advokatlik tuzilmalarining (keyingi o'rinlarda — yuridik shaxslar) to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestrini (keyingi o'rinlarda — Reyestr) yuritish hamda undagi mavjud ma'lumotlarni jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etish tartibini belgilaydi.

Reyestr quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

davlat organlari va muassasalari;

tarkibiga tijoratchi yuridik shaxslarni jamlagan birlashmalar;

uy-joy mulkdorlari shirkatlari;

advokatlik tuzilmalari.

2. Reyestr yuridik shaxslarni tashkil etish, qayta tashkil etish, tugatish to'g'risidagi asosiy ma'lumotlarni hamda boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, barcha tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan davlat elektron axborot resursidir.

3. Reyestr ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan shakllantiriladi va yuritiladi.

4. Reyestrda ma'lumotlar ushbu Nizomda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga (keyingi o'rinlarda — YIDXP) joylashtiriladi.

2-bob. Reyestrni yuritish va uning mazmuniga qo'yiladigan talablar

5. Reyestrda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

yuridik shaxslarning davlat ro'yxatidan o'tkazish raqami;

davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana, oy, yil;

yuridik shaxslarning davlat tilidagi to'liq, qisqartirilgan (mavjud bo'lganda) nomi;

tashkiliy-huquqiy shakli;

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

faoliyat muddati (yuridik shaxs belgilangan muddatga tuzilganda);

yuridik shaxslarning qayta tashkil etish jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar (u amalga oshirilganda);

tugatish jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar (u amalga oshirilganda);

uni amalga oshirish usuli ko'rsatilgan holda faoliyat tugatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar;

ta'sis hujjatlari;

ta'sis hujjatlari tasdiqlangan (tuzilgan) sana;

ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sana.

Reyestrda qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar va hujjatlar bo'lishi mumkin.

6. Reyestr Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda — Tizim) vositasida elektron ko'rinishda, markazlashtirilgan tartibda yuritiladi.

3-bob. Reyestrda yozuvlar kiritish

7. Reyestrda yozuvlar davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishda taqdim etiladigan hujjatlar asosida, shuningdek davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan Reyestrda nazarda tutilgan ma'lumotlar va (yoki) hujjatlar taqdim etilganda kiritiladi.

8. Quyidagi holatlarda ma'lumotlar bir-biridan farq qilgan taqdirda:

Reyestr ma'lumotlar bazasida elektron fayl ko'rinishida mavjud bo'lgan ta'sis hujjatlaridagi ma'lumotlar yuridik shaxslarda mavjud bo'lgan ta'sis hujjatlari bilan farq qilsa, Reyestr ma'lumotlar bazasida elektron fayl ko'rinishida mavjud bo'lgan ta'sis hujjatlari nisbatan yuqori kuchga ega bo'ladi (bundan davlat organlari va tashkilotlarining normativ-huquqiy hujjatlar bilan tasdiqlangan nizomlari mustasno);

Reyestr ma'lumotlar bazasidagi tegishli ro'yxatdan o'tkazish yozuvlari ko'rinishidagi ma'lumotlar Reyestr ma'lumotlar bazasida elektron fayl ko'rinishida mavjud bo'lgan ta'sis hujjatlaridagi ma'lumotlar bilan farq qilsa tegishli ro'yxatdan o'tkazish yozuvlari ko'rinishidagi ma'lumotlar nisbatan yuqori kuchga ega bo'ladi.

Reyestrning, 2022-yil 1-iyulga qadar yuritilishi amalga oshirilgan, tegishli davlat reyestrlaridagi yuridik shaxslarga nisbatan ma'lumotlar bilan farq qilsa, Reyestrda yozuvlar nisbatan yuqori kuchga ega bo'ladi.

Ko'rsatilgan hujjatlar va ma'lumotlarning nisbatan yuqori kuchi yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish tartibida nomutanosiblik bartaraf etilgunga qadar saqlanib qoladi.

9. Quyidagilar Reyestrda yozuv kiritish uchun asos bo'ladi:

belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazish, yuridik shaxslarni Reyestrda chiqarish;

davlat ro'yxatidan (qayta ro'yxatdan) o'tkazishni yoki tugatishni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan sud qarori mavjudligi;

qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa holatlar.

10. Ushbu Nizom 9-bandining **ikkinchi** va **uchinchi xatboshilarida** ko'rsatilgan yozuv kiritilishi uchun asoslar yuzaga kelganda Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ikki ish kuni mobaynida Reyestrda tegishli yozuv kiritadi.

4-bob. Reyestrda axborot taqdim etish

11. Reyestrda mavjud bo'lgan axborot va hujjatlar ochiq bo'lib, istalgan manfaatdor shaxs uchun erkin foydalanish imkoni mavjud, qonunchilik hujjatlariga muvofiq foydalanish cheklab qo'yilgan ma'lumotlar bundan mustasno.

12. Reyestrda mavjud bo'lgan axborot va hujjatlardan erkin foydalanish imkoniyati tegishli axborotni YIDXPga joylashtirib borish yo'li bilan, shuningdek so'ralayotgan hujjat ko'chirmasini, so'ralayotgan hujjat mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma va (yoki) Reyestrda hujjatni berish yo'li bilan, bunda Reyestrda kiritib borilayotgan tegishli ma'lumot va hujjatlar kiritilishi bilanoq har kun yangilab borish yo'li bilan amalga oshiriladi.

13. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimidan mustaqil ravishda oladi.

14. Jismoniy shaxslar, davlat yoki xo'jalik boshqaruv organlari, davlat muassasalari va tashkilotlari yoxud boshqa tashkilotlarning (ushbu Nizomning **13-bandida** keltirilgan davlat organlari va tashkilotlaridan tashqari) yozma so'rovnomasi bo'yicha Reyestrda ushbu Nizomga ilovaga muvofiq elektron shakl bo'yicha aniq yuridik shaxslar to'g'risidagi axborot ko'chirmalar ko'rinishida so'ralgan hujjat, yuridik shaxslarning ro'yxati yoki so'ralayotgan axborot va (yoxud) hujjatlarning mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (QR-kod (matrik shtrixli kod) qo'yilgan holda) taqdim etiladi.

Ma'lumotnoma davlat yoki xo'jalik boshqaruv organlari, davlat muassasalari va tashkilotlariga bepul, jismoniy shaxslar va boshqa

tashkilotlarga bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdoridagi yig'im evaziga beriladi.

Yig'implar summasi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Davlat xizmatlarini rivojlantirish jamg'armasiga o'tkaziladi.

15. Ushbu Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan hujjatlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan tegishli so'rovnoma olingan paytdan boshlab bir ish kuni muddatda taqdim etiladi.

5-bob. Yakunlovchi qoida

16. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat
reystriini yuritish tartibi to'g'risidagi nizomga
ILOVA

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami

**Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestridan
yuridik shaxslar to'g'risida**

KO'CHIRMA

20__ yil "___" _____ -son

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestridan ko'chirmani bergan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi: _____

1.	Yuridik shaxslar to'liq nomi	
2.	Yuridik shaxslar qisqartirilgan nomi	
3.	Tashkiliy-huquqiy shakli	
4.	Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
5.	A'zolar soni*:	
7.	Joylashgan joyi (pochta manzili)	
8.	Ta'ris etilgan sana (yil, oy, sana)	
9.	Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestriga yozuv kiritilgan sana va raqami	
10.	Davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning identifikatsiya raqami	
11.	Asosiy faoliyat turi:	
12.	Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshirgan ro'yxatdan o'tkazuvchi organ nomi	
13.	Yuqori turuvchi tashkilot nomi (davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari uchun,	

	agar ularning yuqori turuvchi tashkiloti mavjud bo'lganda)		
14	Huquqiy vorisi to'g'risidagi ma'lumotlar		
15	Yuridik shaxslarning maqomi (faoliyat yuritayotgan, tugatish jarayonida, tugatilgan)		
16	Faoliyat muddati (agar yuridik shaxslar aniq vaqtga tashkil etilgan bo'lsa)		
17	Bog'lanish ma'lumotlari (telefon, faks, elektron pochta, veb-sayt — mavjud bo'lganda)		
18	— (ko'chirmani bergan mas'ul shaxsning lavozimi)	—	— (familiyasi, initsiallari)
19	QR-kod		

Izoh. *Davlat organlari va tashkilotlari, advokatlik byurolari va yuridik maslahatxonalardan tashqari.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 542-son qaroriga
6-ILOVA

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to'g'risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom davlat muassasalari, tarkibiga tijoratchi yuridik shaxslarni jamlagan birlashmalar, uy-joy mulkdorlari shirkatlari hamda advokatlik tuzilmalarini (keyingi o'rinlarda — yuridik shaxslar) ixtiyoriy tugatish tartibini belgilaydi.

Yuridik maslahatxonalar faoliyatini to'xtatish ularni tashkil etgan O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmalarining qarorini ro'yxatdan o'tkazuvchi organga taqdim etish va ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi Reyestruga ularning faoliyati to'xtatilganligi haqida yozuv kiritishi orqali soddalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Advokatlik byurosining rahbari bo'lgan advokatning litsenziyasi "Advokatura to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining **16-moddasida** nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tugatilganda advokatlik byurosini tugatish sud tomonidan amalga oshiriladi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

ro'yxatdan o'tkazuvchi organ — Davlat xizmatlari markazi;

tugatish — ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan tarkibiga tijoratchi yuridik shaxslarni jamlagan birlashmalar, uy-joy mulkdorlari shirkatlari hamda advokatlik tuzilmalarining yagona davlat reyestriga (keyingi o'rinlarda — Reyestr) yuridik shaxslarni tugatish to'g'risidagi yozuvlarni qayd etish;

tugatuvchi — yuridik shaxslar a'zo(lari) yoki u(lar) tomonidan tayinlangan shaxs(lar) (tugatish komissiyasi).

3. Yuridik shaxslarni tugatish bo'yicha davlat soliq xizmati organlari, davlat statistika organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tuman (shahar) bo'limlari (keyingi o'rinlarda — Byuro) hamda tijorat banklari bilan o'zaro ma'lumot almashinish Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda — Tizim) vositasida amalga oshiriladi.

2-bob. Yuridik shaxslarni tugatish

4. Yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish mazkur Nizomga [1-ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

5. Yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror uning ta'sis hujjatlarida shunga vakolat berilgan yuqori organi tomonidan qabul qilinadi.

Qarorda quyidagilar ko'rsatiladi:

tugatilayotgan yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar (to'liq va qisqartirilgan nomi, soliq to'lovchining identifikatsiya raqami, pochta manzili);

tugatuvchi haqidagi ma'lumotlar (pasport ma'lumotlari, telefon raqami va elektron pochta manzili);

yuridik shaxsni tugatish sababi va mo'ljallanayotgan tugatish muddati.

6. Tugatuvchi tayinlangan vaqtdan boshlab yuridik shaxslar ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi.

Tugatuvchi tayinlangandan so'ng yuridik shaxslar boshqaruv organlari tomonidan ikki kun muddatda unga yuridik shaxslar faoliyati bilan bog'liq barcha hujjatlar, yuridik shaxslarning muhri, shtamlari (agar mavjud bo'lsa) va boshqa mol-mulki topshiriladi.

7. Tugatuvchi ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilingandan so'ng bir ish kunidan kechikmay quyidagilarni amalga oshiradi:

a) ro'yxatdan o'tkazuvchi organga — ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror nusxasini;

b) yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha asosiy depozit hisobvarag'iga (keyingi o'rinlarda — asosiy hisobvarag'i) xizmat ko'rsatuvchi bankka — ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror nusxasini;

v) yuridik shaxslarning milliy valyutadagi ikkilamchi depozit hisobvaraqlariga, jamg'arma depozit hisobvaraqlariga va muddatli depozit hisobvaraqlariga (agar mavjud bo'lsa) xizmat ko'rsatuvchi banklarga — ularni yopish hamda mablag'larning mavjud qoldiqlarini uning milliy valyutadagi asosiy hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi ariza-topshiriqnomani;

g) yuridik shaxslarning xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari, jamg'arma depozit va muddatli depozit hisobvaraqlari (agar mavjud bo'lsa) ochilgan banklarga — ularni yopish hamda mablag'larning mavjud qoldiqlarini uning milliy valyutadagi asosiy hisobvarag'i ochilgan bankda ochilgan xorijiy valyutadagi talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi ariza-topshiriqnomani jo'natadi.

Bunda, tugatuvchi ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi kelib murojaat etgan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xodimi ariza beruvchi nomidan, O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda — YIDXP) orqali murojaat etgan taqdirda, esa ariza beruvchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentga [2-ilovaga](#) muvofiq shakldagi so'rovnomani elektron ravishda to'ldiradi.

So'rovnomaga yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror nusxasi ilova qilinadi.

8. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tugatish to'g'risida qaror tushgandan so'ng bir ish kuni ichida quyidagilarni amalga oshiradi:

a) yuridik shaxs ixtiyoriy tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Reyestruga kiritadi hamda bu to'g'risida Tizim orqali quyidagi vakolatli organlarni xabardor qiladi:

yuridik shaxslar ro'yxatdan o'tgan joydagi davlat soliq xizmati, statistika va davlat aktivlarini boshqarish organlarini;

Byuroning tegishli tuman (shahar) bo'limini;

b) Tizimga yuridik shaxslar tugatilayotganligi to'g'risida barcha uchun erkin foydalanish imkoni bo'lgan e'lonni joylashtiradi.

E'londa kreditorlarning talablari ko'rsatilgan holdagi murojaatlarni qabul qilish muddati ko'rsatiladi, ushbu muddat ko'rsatib o'tilgan e'lon chiqqan vaqtdan boshlab ikki oydan kam bo'lmasligi kerak.

9. Yuridik shaxslarni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqida ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xabardor qilingan sanadan boshlab yuridik shaxslarning faoliyati, shuningdek, barcha turdagi soliqlar va yig'imlar bo'yicha penyalarni hisoblab yozish to'xtatib qo'yiladi.

10. Tugatuvchi ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror qabul qilingandan keyin:

a) qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslar xodimlari bilan mehnatga oid huquqiy munosabatlarni to'xtatish chora-tadbirlarini ko'radi;

b) yuridik shaxslarning aktivlari va majburiyatlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xatlovdan o'tkazadi, shu jumladan yuridik shaxslar qarzdor sifatida ishtirok etgan ijro hujjatlari reyestrini tuzadi;

v) yil boshidan boshlab ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish to'g'risida xabardor qilingan sanagacha bo'lgan davrda yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan barcha turdagi soliqlar va yig'imlar bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadi;

g) agar yuridik shaxsning tekin foydalanishida davlat mulki bo'lgan mol-mulklari mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu mol-mulklarni ikki hafta muddat ichida topshirish-qabul qilish dalolatnomasi asosida Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga topshiradi;

d) yuridik shaxslarning debitorlik qarzlarini olish, shuningdek, tasdiqnoma olgan holda (qabul qilib olingan sanasi to'g'risidagi belgi, pochta kvitansiyasi, yozma yoki elektron xabar va shu kabilar) kreditorlarni aniqlash va yuridik shaxslarning tugatilishi to'g'risida ularni yozma ravishda xabardor qilish chora-tadbirlarini ko'radi.

11. Byuroning tuman (shahar) bo'limi ro'yxatdan o'tkazuvchi organning xabarnomasini olgan sanadan boshlab o'n kundan kechiktirmay ish yuritishda ijro hujjati mavjudligini belgilangan tartibda aniqlaydi, unda tugatilayotgan yuridik shaxslar qarzdor sifatida ishtirok etadi. Tegishli ijro hujjati mavjud bo'lgan taqdirda, davlat ijrochisi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ijro ishini tugallaydi va belgilangan tartibda tugatishni amalga oshirish uchun ijro hujjatini tugatuvchiga yuboradi.

12. Yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organi ro'yxatdan o'tkazuvchi organning xabarnomasi olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishga (taftish qilishga) kirishadi, uning muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak.

13. Kreditorlar tomonidan talablar taqdim etilishi uchun belgilangan muddat tugagach tugatuvchi tomonidan kreditorlarga quyidagi navbat bo'yicha pul summalarini to'lash amalga oshiriladi:

birinchi navbatda — fuqarolarning mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlarni undirishga va mualliflik shartnomalari bo'yicha pul to'lovlariga doir talablarini, shuningdek, fuqarolarning hayoti va salomatligiga yetkazilgan zarar uchun tijorat tashkiloti tegishli vaqtbay to'lovlarni soqit qilish yo'li bilan javob beradigan talablarini qondirish;

ikkinchi navbatda — Davlat budjetiga va maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar;

uchinchi navbatda — boshqa kreditorlarning talablari.

14. Kreditorlar bilan hisob-kitob qilish uchun pul mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda tugatuvchi tomonidan yuridik shaxslar mol-mulkinging bozor qiymatini aniqlash uchun baholovchi tashkilot jalb etiladi va mazkur mol-mulkni ochiq savdolarida sotish tashkil etiladi.

Muomalasi cheklangan mol-mulkni sotish yopiq savdolarida qonunchilikka muvofiq ko'rsatib o'tilgan mulkka nisbatan mulk egasi huquqiga yoki boshqacha buyum egasi huquqiga ega bo'lgan shaxslar ishtirokida amalga oshiriladi.

Savdogaga qo'yilgan sanadan boshlab ikki oy mobaynida sotilmagan mol-mulk kreditorlarga baholash qiymati bo'yicha, mazkur Nizomning **13-bandida** belgilangan navbatga rioya etgan holda mulk etib qabul qilish taklif etilishi kerak.

15. Kreditorlar talablarini qondirish a'zolar yoki boshqa shaxslar tomonidan tugatilayotgan yuridik shaxslarning bankdagi hisobvaraqlariga yo'naltiriladigan mablag'lar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

16. Kreditorlarning talablari to'liq qondirilgandan keyin yuridik shaxslarning mol-mulki ortib qolgan hollarda, tugatuvchi tomonidan ular yuridik shaxslarni tugatish to'g'risidagi qarorda ko'rsatilgan usullarda va yo'nalishlarda, shuningdek yuridik shaxslar ustav maqsadlarida foydalaniladi.

17. Tugatuvchi:

kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugallangandan, shuningdek yuridik shaxslar qarzdor sifatida ishtirok etgan ijro hujjatlari amalda ijro etilgandan;

solliqlar va yig'imglar, moliyaviy sanksiyalar summasi, shu jumladan tekshirishlar yakunlari bo'yicha to'langandan;

kreditorlarning talablari to'liq qondirilgandan keyin yuridik shaxslar qarzdor sifatida ishtirok etgan va ijro etilmagan ijro hujjatlarining ish yurituvida mavjudligi yuzasidan Byuroga so'rov yuboradi.

18. Davlat solliq xizmati organi yuridik shaxslarning solliqlar va yig'imglar bo'yicha qarzi mavjud bo'lmagan taqdirda, bir ish kuni mobaynida solliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risida xulosani tugatuvchiga hamda Tizim orqali ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuboradi.

Byuro yuridik shaxslar qarzdor sifatida ishtirok etgan va ijro etilmagan ijro hujjati uning ish yurituvida mavjud bo'lmagan taqdirda, ijro etilmagan tegishli ijro hujjati ish yurituvida mavjud emasligi haqida tugatuvchiga hamda Tizim orqali ro'yxatdan o'tkazuvchi organga uch ish kuni mobaynida xabarnoma yuborishi shart.

19. Davlat solliq xizmati organi tomonidan taqdim etilgan yuridik shaxslarning solliqlar va yig'imglardan qarzi yo'qligi to'g'risidagi xulosasi, shuningdek, ijro etilmagan tegishli ijro hujjati ish yurituvida mavjud emasligi haqida Byuroning xabarnomasi olingandan keyin tugatuvchi yuridik shaxslarning asosiy hisobvarag'i ochilgan bankka uni yopish to'g'risida murojaat qiladi. Bank bir ish kuni mobaynida yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan hisobvaraqli yopadi va tugatuvchiga asosiy hisobvarag'i yopilganligi to'g'risida ma'lumotnoma beradi.

20. Tugatuvchi asosiy hisobvarag'i yopilgandan keyin uch ish kuni mobaynida davlat arxiviga yuridik shaxslarning qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan barcha buxgalteriya va boshqa hujjatlarini topshiradi.

21. Tugatuvchi yuridik shaxslarni Reyestrndan chiqarish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi kelgan holda yoki YIDXP orqali quyidagilarni taqdim etadi:

yuridik shaxslarning barcha hisobvaraqlari yopilganligi to'g'risida xizmat ko'rsatuvchi banklarning ma'lumotnomalari;

yuridik shaxslar hujjatlarining davlat arxiviga topshirilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma.

Agar yuridik shaxslarning yuridik shaxslarning muhr va shtamlari mavjud bo'lganda tugatuvchi ularni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga o'zi kelgan holda taqdim etadi.

22. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ushbu Nizomning **21-bandida** ko'rsatilgan barcha hujjatlar olingandan keyin ikki ish kuni mobaynida ushbu Nizomning **18-19-bandlari** ijrosi ta'minlanganligini Tizim orqali tekshiradi hamda Reyestrda yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risidagi yozuvlarni kiritadi hamda yuridik shaxslarning vakiliga ushbu reglamentga **3-ilovaga** muvofiq shakl bo'yicha yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risida xabarnomani taqdim etadi yoki uning YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuboradi.

Nizomning **18-19-bandlarida** nazarda tutilgan ma'lumotlar Tizimda mavjud bo'lmasa yoki **21-banddagi** hujjatlar to'liq taqdim etilmagan taqdirda, ro'yxatdan o'tkazuvchi organ Reyestrda yozuvlar kiritishni rad etadi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning qarori u qabul qilingan kundan keyin bir ish kuni mobaynida tugatuvchiga beriladi yoki uning YIDXPdagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi. Reyestrda yozuv kiritish rad etilgan taqdirda, tugatuvchiga ayni bir vaqtda olingan barcha hujjatlar, muhr va shtamlar qaytariladi.

23. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ Reyestrda yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risidagi yozuvlar kiritilgandan keyin uch ish kuni ichida:

yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risida davlat soliq xizmati va statistika organlarini Tizim orqali xabardor qiladi;

tugatilgan yuridik shaxslarning muhr va shtamlarini belgilangan tartibda yo'q qilish choralarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankining yuridik shaxslar joylashgan joydagi filialini yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risida xabardor qiladi.

24. Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatishning umumiy muddati ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida xabardor qilingan kundan boshlab olti oydan oshmasligi kerak.

Ko'rsatilgan muddat o'tgunga qadar ushbu Reglamentning **21-bandida** ko'rsatilgan hujjatlar ro'yxatdan o'tkazuvchi organga to'liq taqdim etilmasa, ixtiyoriy tugatish to'xtatiladi. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bir ish kuni mobaynida davlat soliq xizmati va statistika organlariga ixtiyoriy tugatish to'xtatilganligi to'g'risida Tizim orqali xabar beradi hamda yopilgan bank hisobvaraqlari qayta tiklanadi.

3-bob. Yakunlovchi qoidalar

25. Yuridik shaxslarning tugatilganligi haqida Reyestrda yozuv kiritilishidan oldin ixtiyoriy tugatishning boshqa har qanday bosqichida yuridik shaxslarning vakolatli organi tomonidan faoliyatni tiklash va tugatish jarayonini to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin.

26. Yuridik shaxslarning tugatilganligi sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

27. Yuridik shaxslar a'zolari, tugatuvchi o'zlari tayyorlagan, ro'yxatdan o'tkazuvchi organga va davlat soliq xizmati organiga taqdim etgan hujjatlarning to'g'riligi va qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradilar.

28. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar, shu jumladan, o'zlariga yuklangan vazifalarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik natijasida kreditorlarga, a'zolarga yoki uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish

SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Yuridik shaxslar boshqaruv organlari	Tugatuvchi tayinlangandan so'ng yuridik shaxslar boshqaruv organlari tomonidan unga yuridik shaxslar faoliyati bilan bog'liq barcha hujjatlarni, yuridik shaxslarning muhri, shtamplari (agar mavjud bo'lsa) va boshqa mol-mulknini topshirish.	2 (ikki) kun muddatda
2-bosqich	Tugatuvchi	Ixtiyoriy tugatish to'g'risida qaror nusxasini Ro'yxatdan o'tkazuvchi organga va yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha asosiy depozit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatuvchi bankka taqdim qilish.	1 (bir) ish kuni ichida
3-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	Tugatish to'g'risida qaror taqdim qilingandan so'ng yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat reyestriga kiritish va bu to'g'risida tegishli idoralarni Tizim orqali xabardor qilish hamda o'zining rasmiy saytiga yuridik shaxslar	1 (bir) ish kuni ichida

		tugatilayotganligi to'g'risida barcha uchun erkin foydalanish imkoni bo'lgan e'lon joylashtirish.	
4-bosqich	Majburiy ijro byurosi	Ro'yxatdan o'tkazgan organning xabarnomasini olgandan boshlab ish yuritishda ijro hujjatini davlat ijrochisi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ijro ishini tugallash va belgilangan tartibda tugatishni ijro etish uchun ijro hujjatini tugatuvchiga yuborish.	10 (o'n) kunlik muddatda
5-bosqich	Davlat soliq xizmati organi	1. Yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organi ro'yxatdan o'tkazuvchi organning xabarnomasi olingan kundan boshlab uch ish kuni mobaynida yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishga (taftish qilishga) kirishadi, uning muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi kerak.	1. 3 ish kunida, 30 kalendar kundan ko'p bo'lmagan
		2. Tugatish balansi qabul qilingandan keyin yuridik shaxslarning soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzi mavjud bo'lmagan taqdirda, yuridik shaxslarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risida xulosani tugatuvchiga hamda Tizim orqali ro'yxatdan o'tkazuvchi organga yuborish.	2. 1 (bir) ish kuni ichida
6-bosqich	Majburiy ijro byurosi	Yuridik shaxslar qarzdor sifatida ishtirok etgan va ijro etilmagan ijro hujjati ning ish yurituvda mavjud bo'lmagan taqdirda, ijro etilmagan tegishli ijro hujjati ish yurituvda mavjud emasligi haqida tugatuvchiga hamda Tizim orqali ro'yxatdan o'tkazuvchi organga xabarnoma yuborish.	3 (uch) ish kuni ichida
7-bosqich	Tugatuvchi va bank	Davlat soliq xizmati organi va Majburiy ijro byurosining xabarnomasi olingandan keyin tugatuvchi yuridik shaxslarning asosiy hisobvarag'i ochilgan bankka uni yopish to'g'risida murojaat qilish va yuridik shaxslarning asosiy hisobvarag'i yopilganligi to'g'risida ma'lumotnoma olish.	1 (bir) ish kuni ichida
8-bosqich	Tugatuvchi	Yuridik shaxslarning asosiy hisobvarag'i yopilgandan so'ng davlat arxiviga yuridik shaxslarning qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan barcha buxgalteriya va boshqa hujjatlarini topshirish.	3 (uch) ish kuni ichida
9-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	1. Barcha hujjatlar taqdim qilingan taqdirda davlat reyestriga yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risidagi yozuvlarni kiritish.	1. 2 (ikki) ish kuni ichida;
		2. Qaror qabul qilingan kundan keyin uni tugatuvchiga berish yoki unga pochta orqali jo'natish. Davlat reyestriga kiritish rad etilgan	2. 1 (bir) ish kuni ichida

		taqdirda, tugatuvchiga ayni bir vaqtda olingan barcha hujjatlar, muhr va shtamplar (agar mavjud bo'lsa) qaytarish.	
10-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ	Davlat reyestriga yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risidagi yozuvlar kiritilgandan keyin davlat soliq xizmati va statistika organlarini Tizim orqali xabardor qilish.	3 (uch) ish kuni ichida

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to'g'risidagi **nizomga**
2-ILOVA

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni ixtiyoriy tugatish bo'yicha

SO'ROVNOMA

I. Tugatuvchi (vakil) jismoniy shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar:	
1. F.I.Sh.:	
2. JShShIR.:	
3. Telefon raqami.:	
4. elektron pochta (mavjud bo'lsa):	
II. Tugatilayotgan yuridik shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar:	
1. Yuridik shaxsning nomi (to'liq va qisqartirilgan (mavjud bo'lsa)).:	
2. Yuridik shaxsning STIRi.:	
3. Yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish haqidagi qaror rekvizitlari (raqami, sanasi):	
4. Tugatilayotgan yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli.:	tijoratchi yuridik shaxslar birlashmalari
	uy-joy mulkdorlari shirkatlari
	advokatlik tuzilmalari:
	advokatlik byurosi
	advokatlik firmasi
	advokatlik hay'ati
	yuridik maslahatxona
III. Ilova qilinadigan hujjatlar:	

1. yuridik shaxsni ixtiyoriy tugatish to'g'risidagi qaror nusxasi;

2. ariza beruvchining vakolatligini tasdiqlovchi hujjat.

Izoh: so'rovnomaga taqdim etiladigan hujjatlar asliga muvofiq PDF formatda ilova qilinadi.

Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarni tugatish tartibi to'g'risidagi **nizomga**
3-ILOVA

Yuridik shaxslar tugatilganligi to'g'risida
XABARNOMA

Elektron hujjatning identifikatsiya raqami			
O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri			
_____ tomoni			
dan			
(ro'yxatdan o'tkazuvchi organing nomi)			
belgilangan tartibda va muddatlarda Sizning 20__ yil "___" _____dagi			
(yil, kun, oy)			
_____son qarorga			
asosan,			
(tugatishga asos bo'lgan hujjat)			

(tugatilayotgan yuridik shaxs nomi)			
STIR _____;			
tugatilganligi haqidagi yozuv 20__ yil "___" _____dagi _____-son bilan Tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan ayrim yuridik shaxslarning davlat reyestridan chiqarilganligini ma'lum qiladi.			

(mas'ul shaxsning lavozimi)			

(F.I.O)			
<div style="border: 1px solid black; width: 150px; height: 100px; margin: 0 auto; display: flex; align-items: center; justify-content: center;">QR-kod</div>			

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi 542-son qaroriga
7-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining o‘z kuchini yo‘qotgan deb
hisoblanayotgan qarorlari**

RO‘YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “Yuridik shaxslar birlashmalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish haqidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 1994-yil 22-martdagi 153-son qarori.

2. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 1999-yil 14-sentabrdagi 427-son qarori.

3. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2001-yil 27-iyundagi 276-son qaroriga ilovaning 3-bandi.

4. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 2009-yil 27-fevraldagi PQ-1062-son qarori)” 2009-yil 11-martdagi 63-son qaroriga ilovaning 2-bandi.

5. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xuquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son qarori)” 2017-yil 20-dekabrdagi 1001-son qaroriga ilovaning 1-bandi.

6. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba‘zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida (“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida” 2017-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-446-son O‘zbekiston Respublikasining Qonuni)” 2018-yil 19-yanvardagi 34-son qaroriga ilovaning 2-bandi.

7. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnatga haq to‘lash,

pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarini aniqlash tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son Farmoni)" 2019-yil 28-dekabrdagi 1046-son qaroriga ilovaning 6-bandi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2022-y., 09/22/542/0860-son)